

Mahamatova Sevinch

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Teleradio jurnalistikasi yo‘nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ozod Sharafiddinovning she’riyat haqidagi tadqiqotlari she’rshunos qanday bo‘lishi kerakligi, poeziyani baholashda qay bir mezonlarga tayanish zarurligi haqida teran xulosalar chiqarish imkonini beradi. Aytish mumkinki, xuddi ana shu fazilatlari bois olimning boshqa asarlari qatori she’riyat tahliliga oid ilmiy ishlari ham mudom milliy adabiyotimiz ravnaqiga, she’rshunoslarning yangi navqiron va salohiyatli avlodlarini tarbiyalab yetishtirish ishiga munosib xizmat qilaveradi.

Kalit so‘zlar: Adib, ustoz, shogirt, salohiyat

Ozod Sharafiddinov hayotda ham, ijodda ham o‘zining haqqoniy so‘zi, iroda va matonati bilan yurtdoshlarimizga, avvalambor yoshlarimizga ibrat bo‘layotgan, tom ma’nodagi ma’rifatparvar insondir.

Agar adabiyotimiz tarixi o‘zanidan turib, yaqin yuz yillikka nazar tashlasak, juda ko‘p qalamkashlarning nomlariga ko‘zimiz tushadi. Ulardan hech birining xizmatlarini sira ham kamsitmagan holda aytish mumkinki, keyingi ellik yil ichida faoliyat ko‘rsatgan adabiyotshunoslар, publisistlar silsilasida Ozod Sharafiddinovning nomi alohida bir cho‘qqi yanglig‘ ko‘zga tashlanib turibdi.

Kishi ismiga tortadi degan ta’bir - dono hikmat. Ozod Sharafiddinov O‘zbekiston va o‘zbek adabiyotining XX asr tarixida chinakamiga o‘z shaxsi, o‘z dunyoqarashi, o‘z e’tiqodi, o‘z iste’dodi, o‘z imkoniyatlari ozodligini bir butun takrorlanmas hodisa deb bilgan, bu yuksak qadriyatlar taqozo etadigan mashaqqatlar yukiga yelkasini og‘rinmay tutgan, bir zum el nazaridan chetda emasligini his etib yashagan allomalardan.

Hazrat Mahmud Qoshg‘ariy qomusini turkiy tilda tuzib ketgan, Yusuf Xos Xojib va Navoiy ruhiy qudrati bilan buyuk ma’naviy obidalar yaratilganidan keyin asrlar o’tib Mavlono Abdulla Qodiriy qalamidan dilbar nasr dunyoga kelgani hammaga ayon. Ana shu silsilada davr taqozosi bilan uzilish sodir bo‘lganida Ozod Sharafiddinov degan munaqqid dunyoga kelishi tabiiy edi. Gap shundaki, Odil Yoqubov nasri va Abdulla Oripov nazmi yangi bir avlod dunyoga kelganini isbotlashi uchun ularni nazorat - tahliliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash kerak edi.

Ana shu zalvorli yukni zimmasiga olgan adabiy tanqidchimiz o‘zbek adabiyoti silsilasida uzilish bo‘lmasiligi uchun kurashdi, mas’uliyatini tengdoshlari bilan baham ko‘rdi, rang-barang asarlarni qo‘llab-quvvatlashdi, javobini ololmagan savollariga jahon adabiyoti va falsafasi ummonidan talqin izladi, nimalarnidir topgandek bo‘ldi. Qarabsizki, nafaqat 60-yillar avlodlari qolaversa, yangi avlodlar ham Ozod Sharafiddinov nuqtai nazari bilan hisoblashadigan bo‘ldi. Buning boisi alloma yaratgan maqolalar va asarlar nainki adabiy, shuning barobarida falsafiy tanqid edi.

Ozod Sharafiddinov adabiyotning bosh vazifasi Olam, Inson va uning qalbini tasvirlash degan azaliy qadriyat, ya’nikim bag‘ri butunlikda ekanligiga sodiq qoldi.

Ozod Sharafiddinov ijod qilgan kattakon davrda o‘zbek adabiyotida jahon adabiyoti talablariga javob bera oladigan bir talay asarlar yaratildi. Shuhrat, Said Ahmad, Shukrullo, ularning izidan kelgan Pirimqul Qodirov va Odil Yoqubov, so‘z san’atimizga yangi qon bo‘lib qo‘shilgan O‘tkir Hoshimov va Shukur Xolmirzayev, she’riyatimiz ufqlarini kengaytirgan Erkin Vohidov va Abdulla Oripov singari o‘nlab, yuzlab ijodkorlar biri-biriga o‘xshamagan, betakror asarlar yaratdilar. Shunda Ozod Sharafiddinovning "Iste’dod - Xalq mulki" degan iborasi mag‘rur jarangladi. Uning yutuqlaridan quvongan munaqqid har bir yaxshi namunasini kitobxon ahliga yaqinlashtirdi, ijodkor nazarda tutmagan jihatlarini kashf etdi, xalq farzandlarini adabiyotni tushunishga o‘rgatdi.

Ozod Sharafiddinov iste’dodini, kelajakda katta ijodkor olim bo‘lishini Abdulla Qahhordek ulug‘, xalqimiz sevgan adibimiz ko‘ra bilgan va mehr qo‘yib,

bag‘riga olgan edi. Abdulla Qahhor suhbatlarining birida Ozod Sharafiddinovni tilga olib: "Shunday yozmoq kerakki, nosfurush sening kitobing sahifasiga nos o‘rab sotgan bo‘lsa, uyida uni ochib, matniga ko‘zi tushgan odam: "Iye, bu Ozodning gaplari-ku", deya sahifani ehtiyot qilib, olib qo‘ysin".

Bu haq gapni tan olgan va qadrlay bilgan Ozod Sharafiddinov "... bundek mukammal yozmoq uchun, bu darajada barkamol san’at namunasini yaratmoq uchun ijodkor Abdulla Qahhordek mehnatkash bo‘lmog‘i lozim. Bu esa hammaga ham nasib qilavermaydi. Faqat o‘z Vatanini jon dilidan yaxshi ko‘rgan, o‘z xalqini har tomonlama barkamol ko‘rishni istagan, ko‘ksida istiqlol yolqini barq urib turgan san’atkorgina bu baxtga musharraf bo‘ladi", deb qayd etgan edi. Ustozni bunday ulug‘lash va ularga ta’zim qila bilish uchun Ozod Sharafiddinovdek adabiyotshunos bo‘lib yetilmoq kerak.

Ozod Sharafiddinov odil inson, zahmatkash olim, mehribon padar sifatida bu yorug‘ dunyoda muhtasham iz qoldirdi. O‘zidan o‘lmas ijodiy meros qoldirdi. Bu ijod nainki bir insonning, balki butun bir millatning faxru g‘ururi bo‘la oladigan ijoddir, o‘zbek xalqining, millatimizning o‘tmishi, buguni va kelajagiga dahldor ijoddir.

"Zamon, Qalb, Poeziya", "Yalovbardorlar", "Iste’dod jilolari", "Birinchi mo‘jiza", "Adabiyot - hayot darsligi", "Cho‘lponni anglash", "Ijodni anglash baxti", "Davondagi o‘ylar" kabi adabiy- tanqidiy risolalari chop etildi. Umuman olganda, Ozod Sharafiddinov yaratgan adabiy merosni sarhisob qiladigan bo‘lsak, alohida chop etilgan asarlarining o‘zi - 28 taga, vaqtli matbuotdagi maqola va suhbatlari 385 taga yetadi. To‘plamlardagi maqolalar, kirish so‘zlar, so‘zboshi va so‘ngso‘zlar 50 dan ziyod, tarjima asarlari esa 150 taga yaqin. Olimning rahbarligida 29 kishi nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

Ozod Sharafiddinov fikrat ibrati, jasorat ibrati, ta’b ibrati, zakovat ibrati singari bir qancha ibratlarni o‘zida mujassamlashtirgan allomalarimizdan edi. Suyanadigan Ma’rifat bo‘lganidan keyin shunday bo‘lishi tabiiydir.

Ustozdan minglab shogirdlar qoldi. Bu shogirdlar nafaqat O‘zbekistonda balki bizga ma’lum bo‘lgan barcha mintaqalarda domla o‘rgat- gan ilm bayrog‘ini baland ko‘tarib, chirog‘larini yoqib kelayotir.

Zamonaviy badiiy tafakkurimiz rivojida o‘chmas iz qoldirgan, hamisha barhayot siymo sifatida tan olingan Ozod Sharafiddinov nomi doimo yuksak ehtirom bilan tilga olinadi. Prezident Islom Karimov aytganidek, keyingi yetti-o‘n yil davomida teran fikrlaydigan, ahli donish kishilar ko‘zga yaqqol tashlanib qoldi. Shunday kishilardan biri professor, Beruniy nomidagi davlat mukofoti laureati, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Mustaqil O‘zbekistonning faxriy nishonlaridan - "Buyuk xizmatlari uchun", "Mehnat shuhrati", "O‘zbekiston Qahramoni"ning sohibi Ozod Sharafiddinovdir.

Minbarlarda, shogirdlar va do‘stlar davrasida adabiy baxslar va munozaralarda o‘ziga xos fazilatlarga - to‘g‘ri so‘zligi, murosasizligi, bilimdonligi, hayotdagи va adabiyotdagи har bir hodisa, har bir ijodkor, turli zamonlarga mansub san’atkorlar va asarlar xususida o‘z fikri, o‘z talqini va tanqidiy qarashlari bor inson sifatida takrorlanmas shaxs Ozod Sharafiddinovdir.

Ozod Sharafiddinov 1929 yil Qo‘qon shahrida tavallud topdi. Toshkentda o‘rta maktabni oltin medal bilan tugatdi va Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetida, so‘ngra Moskvadagi jahon adabiyoti instituti aspiranturasida tahsil oldi. Akademik Matyoqub Qo‘shjonov eslaydi: "Ming to‘qqiz yuz ellik beshinchi yilning aprel oyi. Maksim Gorkiy nomidagi jahon adabiyoti ilmiy-tadqiqot instituti. Moskvaning yetakchi adabiyotshunos olimlari institut zaliga yig‘ilgan. Minbarda yoshi endigina 26 ga to‘lgan, o‘rta bo‘yli, xipcha gavdali, qoraparang, qirg‘iy burun yigit. U "Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek dostonchiligi" mavzuida nomzodlik dissertatsiyasining mazmuni xususida ma’ruza qilayapti... U yigit endilikda taniqli adabiyotshunos, munaqqid bo‘lgan professor Ozod Sharafiddinov edi".

Moskvadagi tahsil O.Sharafiddinovga juda ko‘p narsani o‘rgatdi. Birinchidan, u adabiy hayotni his qildi, adabiy uchrashuvlarda muntazam qatnashdi, gazeta-jurnal tahririylarida bo‘ldi, ko‘plab yozuvchilar bilan tanishdi.

"Bizning tanglayimizni G‘afur G‘ulom she’ri bilan ko‘tarishgan, - deb yozadi Ozod Sharafiddinov "Daryodil shoir" badiasida. - Menga tengqur avlodning ruhiy olamini, ma’naviy dunyosini G‘afur G‘ulomsiz tasavvur etish mushkul. G‘afur G‘ulom bo‘lmaganida bu olam anchagina g‘arib, kemtik

bo‘lardi”. Mana shu qisqa, lo‘nda fikrda Ozod Sharafiddinovninggina emas, unga mansub avlodning, qolaversa, G‘afur G‘ulomday ijodkorlar avlodining mohiyati anglashiladi. U adabiy tanqid dargohiga qadam qo‘ygan kezlarda o‘zbek adabiyoti deb atalgan bir butun voqelik to‘rtala kattakon sho‘bada har biri o‘zicha yashayotgan edi.

Bular, birinchidan, xuddi folklor singari zarur bo‘lgandagina murojaat etiladigan mumtoz adabiyot. Ikkinchidan, qatag‘on etilgan XX asr so‘z san’atkorlarining hali xalq yodidan chiqmagan yoki nashriyotlar tortmalarida qolib ketgan asarlari. Uchinchidan, har kuni gazeta va jurnallarda chop etilayotgan, katag‘on bo‘ronidan egilgan, mafkura jaziramasida qovjiragan o‘ta siyosatlashgan sovet kishisini o‘zbek tanasi va timsolida tasvirlovchi asarlar va nihoyat, to‘rtinchidan adabiyotga endigina kirib kelayotgan navqiron ijodkorlarning asari.

Folkor va mumtoz adabiyot sof adabiyotshunoslik mavzusi bo‘lgani bois munaqqidimiz oxirida sanalgan uchtasiga murojaat etishga intilgan. Ammo... Butun baxt-soadatini o‘zligidan yiroq ketganicha jamoaviylikda, zo‘ravonlarcha singdirilgan mafkura ta’siridagi sovet kishilariga xos ajobtovur mahdudlik va qaysarlikda deb bilmagani, har bir xatti-harakati alaloqibat Vatan va o‘zlikka borib taqalgani bois Abdulla Qodiriy yoki Cho‘lpon yaratgan badiiy olamga murojaat etish imkoniyatlari cheklangan edi. Bu badiiy olamga murojaat etish imkoniyati tug‘ilishini roppa-rosa qirq yil kutgan Ozod Sharafiddinov zamondoshlari bilan, ularning yangidan-yangi asarlari bilan hamnafas yashadi, ajoyiblarini quvvatladi, hotamtoyona qo‘llab-quvvatladi, arzimaslarini ayamadi, shafqatsiz chipakka chiqardi. Vaqt muqarrar qilishi mumkin bo‘lgan ishga esh bo‘ldi.

Tanqidchining bilimdonligi, yaxshi asardan zavqlanishi jahon xalqlarining adabiy kartasini qiynalmay "o‘qiy olishi" masalaning bir tomoni. U bilganlarini adabiy jarayonga tatbiq qila olishi, o‘z yo‘nalishini izchillik bilan davom ettirishi, muhimi, nuqtai nazari hayotda qo‘llanilayotganiga ishonch hosil qilish kerak. Boshqa- cha aytganda, tanqidchi iste’dodining yuzaga chiqishi, amalda qo‘llana boshlanishi muhimdir. "Taqnidchining kuchi, tanqidchining

qadri uning adabiy jarayonga ta'siri bilan belgilanadi, - deb yozadi O. Sharafiddinov "Taqidchilik kasbi haqida" maqolasida. - Adabiy jarayonga ta'sir ko'rsatish uchun tanqidchi g'oyat chuqur, g'oyat salmoqli, dalilli fikrlar, muammolar, mulohazalarni o'rta ga tashlashi kerak. Fikr esa g'oyibdan hosil bo'lmaydi. Fikr bilimning hosilasi".

Ozod Sharafiddinov tanqidchilik muammolariga ham ko'p to'xtalib o'tganlar. Tanqid - bu adabiyotdagi go'zallikni kashf etish, adabiyotning badiiyligini aniqlash, insonga ta'sir qiladigan estetik omillarini belgilovchi san'at. U o'zbek adabiy tanqidchiligiga munosabat bildirib, uning rivojlanishi uchun to'siq bo'layotgan bir qator illatlar xususida so'z yuritganlar. Masalan, eng katta kamchilik - vulgar sosiologizm usuliga keragidan ortiq mahliyo bo'lish.

"Sosiologik tahlil oson - uni amalga oshirish uchun unchalik jon kuydirmasdan - asarning mavzusini, mazmunining asosiy nuqtalarini aytasanda, o'shangan yaqin hayot voqealariga solishtirasan, so'ng o'zingning bir-ikkita "dono" xulosalarining aytasan, muallifga qayerni tuzatish, qayerni kuchaytirish, qayerni olib tashlash to'g'risida "qimmatli maslahatlar" berasan, tamomvassalom. Lekin bunaqa "tanqid" dan na kitobxonga, na ijodkorga foyda bor". Shu bilan birga, "tanqidning bu shakliga murojaat qilishga majbur etadigan sabab - bilimningg sayozligi, saviyaning pastligi", deya kuyinib yozadi adabiyotshunos.

Ozod Sharafiddinov o'z ijodida tanqidchilarni ogohlantirib, tahlilda bir yoqlamalik, bir xillikdan, sxematizmdan qochishga undardi. Masalan, "... ayrim o'rinlarda muhabbat zo'rayib ketib (Cho'lponcha), ob'yektivlikka putur yetkazib qo'yayotganga ham o'xshaydi. Biz ba'zan... Cho'lponni ideallashtirishga, o'zi yashagan zamindan olib, zamonaviylashtirishga harakat qilyapmiz... avvalari Cho'lpon faqat qoralanib kelgan bo'lsa, endilikda uni salkam farishta sifatida ko'rsatishga intilmokdalar".

Vaholanki, buyuk Cho'lpon haqida ham faqat bir tomonlama fikr yuritish katta xatolikka yo'l qo'yish bo'ladi. Ozod Sharafiddinov aytganlaridek, "haqiqiy iste'dod egasi hech qachon jo'ngina formulaga tushadigan yuzaki odam bo'lmaydi".

Olim qaysi ijodkor asarini tahlil qilmasin (xoh yosh yozuvchi bo‘lsin, xoh tajribali)- bu ijodkorning asarlarini go‘yo o‘z laboratoriyasi ob’yektiga aylantirar, o‘zi ham har biridan saboq, ma’naviy ozuqa olishga harakat qilar edilar. Tanqidchilikning vazifasini ijodkorga faqat aql o‘rgatishda, faqat ko‘kka ko‘tarib yoki yerga urishda emas, asarlardan badiiylikni axtarishda deb bilar edilar. Ana shunday jarayonlar ichida Ozod Sharafiddinov tafakkurining diapazoni xam kengayib, tushunchasi rivojlanib borgan. Zero, umri davomida son-sanoqsiz asarlarga munosabat bildirgan bo‘lsalar, ularning hech qaysisi tasodifiy asarlar bo‘lmagan. Qaysi ijodkor xususida to‘xtalmasinlar - Cho‘lpon, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Zulfiya, Said Ahmad har bir yozgan maqolalarida ularning nafasi sezilib turar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. http://mustaqillik.uz/uz/pages/Ozod_Shafafiddinov
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ozod_Shafafiddinov
3. <https://arboblar.uz/uz/people/shafafiddinov-ozod>